



UDK: 372.41:37.015.3

Zulfiyaxon TO‘YCHIYEVA

Qo‘qon davlat universiteti tayanch doktoranti, Qo‘qon, O‘zbekiston

E-mail: zulfiyatoychiyeva40@gmail.com

ORCID: 0009-0004-7796-2328

ADPI professori, p.f.d B.Artikova taqrizi asosida

“O‘QISH” FANINING BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI INTELLEKTUAL JIHATDAN RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya

Boshlang‘ich ta‘lim bosqichida “O‘qish” fani o‘quvchilar intellektual rivojida muhim va yetakchi ahamiyat kasb etadi. Uning didaktik salohiyati orqali o‘quvchilarda hayot uchun zarur bo‘lgan asosiy ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar shakllantiriladi. Xususan, o‘qish jarayonida savodxonlik darajasi oshiriladi, nutq boyligi kengaytiradi, fikrlash qobiliyati rivojlantiriladi, dunyoqarash shakllanadi hamda muloqot ko‘nikmalari takomillashtiriladi. Shunga ko‘ra “O‘qish” fanining samaradorligini ta‘minlash orqali o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishga muhim pedagogik vazifalardan biri sifatida yondashish talab qilinadi. Maqolada “O‘qish” fanining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini intellektual jihatdan rivojlantirishdagi ahamiyati ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: “O‘qish” fani, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, rivojlanish, intellektual rivojlanish, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini intellektual rivojlantirishning muhim yo‘nalishlari.

ЗНАЧЕНИЕ ПРЕДМЕТА «ЧТЕНИЕ» В ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОМ РАЗВИТИИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация

На этапе начального образования предмет “Чтение” играет важную и ведущую роль в интеллектуальном развитии учащихся. Его дидактический потенциал способствует формированию у обучающихся ключевых жизненных умений, навыков и компетенций. В частности, в процессе чтения повышается уровень грамотности, обогащается речь, развивается способность к мышлению, формируется мировоззрение, а также совершенствуются коммуникативные навыки. В этой связи обеспечение эффективности преподавания предмета «Чтение» следует рассматривать как одну из важнейших педагогических задач, направленных на развитие интеллектуального потенциала учащихся. В статье раскрывается значение предмета «Чтение» в интеллектуальном развитии учащихся начальных классов.

Ключевые слова: предмет “Чтение”, учащиеся начальных классов, развитие, интеллектуальное развитие, основные направления интеллектуального развития учащихся начальных классов.

THE IMPORTANCE OF THE “READING” SUBJECT IN THE INTELLECTUAL DEVELOPMENT OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Annotation


In primary education, the subject “Reading” plays an important and leading role in the intellectual development of students. Its didactic potential contributes to the development of key life skills, abilities, and competencies in students. Specifically, reading improves literacy, enriches speech, develops thinking skills, shapes worldviews, and refines communication skills. Therefore, ensuring the effectiveness of teaching “Reading” should be considered one of the most important pedagogical tasks aimed at developing students' intellectual potential. This article explores the importance of “Reading” in the intellectual development of elementary school students.

Key words: “Reading”, elementary school students, development, intellectual development, key areas of intellectual development in elementary school students.

Kirish. Shaxsning shakllanishida boshlang‘ich ta‘lim muhim bosqich sanaladi. Aynan mana shu davrda uning savodli, ma‘lumotli, bilimli bo‘lishini ta‘minlovchi dastlabki poydevor qo‘yiladi. Ma‘lumki, poydevor qanchalik mustahkam bo‘lsa, uning negizida barpo qilinadigan asos shunchalik puxta bo‘ladi. Pedagogik nuqtayi nazardan esa amalga oshiriladigan ta‘limiy jarayonning izchilligi samarali ta‘minlanib, dinamik, evolyutsion,

dialektik xarakter kasb etadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining savodxon bo‘lishi, nutqining boyitilishi, atrofdegilar bilan samarali muloqot qila olishlari uchun lug‘at “zahirasi”ni yaratishda “O‘qish” darslari muhim o‘rin tutadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini intellektual jihatdan rivojlantirish jarayonida “O‘qish” fanini o‘qitishda quyidagi vazifalar hal qilinadi (1-rasm):



1-rasm. “O‘qish” fanining didaktik imkoniyatlari

Ta'lim jarayonida "O'qish" fanining vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini intellektual jihatdan rivojlantirish borasidagi vazifalarni hal qilishda quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). I. Savodxonlikni shakllantirish. Lug'aviy ma'nosiga ko'ra arabcha "سواد" so'zidan olingan "savod" tushunchasi "o'qish-yozishdan xabardorlik" [12] deya talqin qilinadi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar garchi o'qish va yozish ko'nikmalarini "Alifbe" darslari orqali o'zlashtiradi. "O'qish" fani esa o'quvchilar tomonidan "Alifbe" darslari yordamida o'zlashtirilgan o'qish va yozish ko'nikmalarining davomli, izchil ravishda rivojlanib, sekin-asta takomillashib borishga xizmat qiladi. O'quvchilar kichik matnlarni yaxlit holda ravon, muayyan tezlikda, mazmunini tushungan holda mutolaa qilish bilan birga mazmunini qayta bayon etish, bayon qilingan voqea yoki hodisa yuzasidan o'z fikrini ifodalash, munosabatini namoyon etish kabi hayotiy muhim, ahamiyatli malakalarga ega bo'ladi. Bu holat uzluksiz ta'limning keyingi bosqichlari uchun poydevor vazifasini o'taydi.

II. Nutqni boyitish. Nutq "tilning alohida ijtimoiy faoliyat turi sifatidagi muayyan yashash shakli" [5] sifatida lug'aviy ma'nosiga ko'ra "tilning fikr ifodalash va almashish jarayonida amal qilinishi" [12] (ishtirok etishi) deya talqin qilinadi. Bolalar, shu jumladan, kichik maktab yoshi o'quvchilarining nutqini boyitishda asosiy e'tibor ularning lug'at zahirasini ko'paytirish, ular tomonidan yangi so'z va iboralarning o'zlashtirilishini ta'minlashga qaratilgan.

O'zbek tilida "nutqni o'stirish" tushunchasi ham qo'llaniladi. Nazariy

jihatdan ushbu atama "nutqni boyitish" tushunchasiga nisbatan keng ma'noga ega bo'lib, o'quvchilarda gapirish, fikrlash, fikrni to'g'ri ifoda qilish, bog'lanishli nutq tuzish qobiliyatlarini rivojlantirishni anglatadi. Ammo nima uchundir maktabgacha va boshlang'ich ta'limda faoliyat yuritayotgan pedagog xodimlar tomonidan har ikki tushunchani qo'llashda xatoga yo'l qo'yiladi. Ya'ni, maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilariga nisbatan "nutqni o'stirish" iborasi qo'llaniladi. Hatto boshlang'ich ta'limning yakuniy bosqichida ham o'quvchilar gapirish, fikrlash, fikrni to'g'ri ifoda qilish, bog'lanishli nutq tuzishning element (ilk asos)larinigina o'zlashtiradi. Shu sababli boshlang'ich ta'limda "nutqni boyitish" tushunchasini qo'llash metodik jihatdan to'g'ri bo'ladi.

"O'qish" darsligi orqali taqdim qilinayotgan o'quv materiallari ularning mavzusidan kelib chiqqan holda o'quvchilarni ijtimoiy jarayonlar, tabiiy hodisalar, yil fasllari, turli kasbiy faoliyat tavsifi, vatanparvarlik, bilim olishning ahamiyat, milliy tarix, xalq og'zaki ijodi namunalari bilan tanishtiradi. Bu esa, tabiiyki, o'quvchilarda rang-barang mavzular bo'yicha yangi so'zlarni o'zlashtirish, mohiyatini anglash uchun keng imkoniyat yaratadi. Muloqot vaqtida ularni qo'llash esa o'quvchilar nuqtaning boyishiga olib keladi. Lug'at zahirasining boy bo'lishi o'quvchilar tomonidan fikrni ochiq, ravon, tushunarli ifodalanishga yordam beradi.

Boshlang'ich sinf (4 sinf) o'quvchilarida "O'qish" fani bo'yicha miqdoriy ko'rsatkich sifatida "1 daqiqada talaffuz va boshqa talablarga rioya qilgan holda 80-90 so'zni o'qiy olish, 30 daqiqada berilgan mavzu asosida 8-10 gapdan iborat matn yaratib fikr bayon qila olish; fonetika, imlo, talaffuz, tinish belgilar, so'z va uning ma'nosi, grammatika; so'z tarkibi, o'zak, qo'shimcha, mustaqil va yordamchi so'z turkumlari, nutq madaniyati; adabiy nutq va so'zlashuv nutqi" [8]ga ega bo'lishdan iborat zaruriy va nazariy bilim elementlarni namoyon bo'lishi talab qilinadi. Manbalardan birida o'qish texnikasiga qo'yiladigan talablar boshlang'ich maktabning barcha sinflari bo'yicha "bir daqiqada 1-sinfda 25-30 ta, 2-sinfda 40-50 ta, 3-sinfda 60-70 ta, 4-sinfda 80-90 so'zni tashkil etish" [9] zarur ekanligi ko'rsatilgan.

III. Fikrlash qobiliyatini rivojlantirish. Psixologiyada "fikrlarni tartibga solish, ularni o'z o'rnida ishlatis va boshqarib turish" [4]; "obyektiv voqea, hodisalarini taqqoslash va ular yuzasidan xulosalar chiqarish orqali mulohaza yuritish" [2] jarayoni shaxs ongida fikrlash operatsiyasining amalga oshirishini ta'minlaydi. Har bir shaxs fikrlash malakasiga ega. Biroq, bu

jarayon har bir shaxsda turlicha kechadi. Ayrim shaxslar voqea, hodisa va jarayonlarning har tomonlama, chuqur tahlil qilgan hamda baholagan holda muayyan xulosaga keladi, boshqa bir guruh kishilar ularni yuzaki tahlil qilib, baholaydi, ammo ular yuzasidan xulosaga chiqarmaydi. Bu holat ijtimoiy subyektlarning turlicha fikrlash qobiliyatiga egaliklarini anglatadi. Fikrlash jarayoni "tafakkur" ham deb yuritiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Zamonaviy sharoitda o'qitish tizimi oldiga o'quvchilarga tayyor bilimlarni berib, ularning o'quvchi tomonidan yodlab olinishiga erishishga bo'lgan yondashuv butunlay inkor qilinmoqda. Axborotlashgan jamiyatda shaxsning tayyor bilimlarni yodlab olishi na uning o'zi uchun, na jamiyat uchun foydali bo'lmaydi. Bu holat axborot oqimining shiddati, media muhitida kontentlarning yashin tezligida yangilanib borishi, qolaversa, shaxsning ulkan ma'lumotlar makonida "yo'qolib qolish" xavfi mavjudligi bilan izohlanadi. Shu sababli bugungi kunda o'quvchilarda tayyor bilimlarni qabul qilish va yodlab olish ko'nikmasini emas, aksincha, o'quv axboroti bilan samarali ishlash, didaktik material mazmunini tahlil qilish, o'zaro solishtirish, unda ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish, yakuniy xulosaga kelishdan iborat malakani rivojlantirishga erishish tobora dolzarblik kasb etmoqda.

Tahlil va natijalar. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlari, uzluksiz ta'lim tizimining tegishli bosqichiga xos xarakterli jihatlariga ko'ra ularning fikrlash qobiliyati (tafakkuri) yegizida quyidagi sifatlar namoyon bo'lishini ko'rsatadi (2-pacm):

1. Aniq-obrazli tafakkurga egalik. Mazkur yosh davridagi bolalar asosan o'zlari ko'rgan, eshitgan va his qilgan hodisalarga, ya'ni, rasmlar, o'yinchoqlar

yoki hayotiy voqealarga tayangan holda fikrlaydi. "O'qish" darslarida o'quvchilarni metafora, tashbeh, epitet kabi badiiy vositalar bilan tanishtirish ularning obrazli fikrlash qobiliyatini mustahkamlaydi.

2. Mantiqiy aloqadorlik va bog'lanishlarni tushunish qobiliyatiga egalik. Boshlang'ich sinf o'quvchilari evolyutsion (bosqichma-bosqich) rivojlanish asosida o'zlari guvoh bo'layotgan yoki o'qilayotgan voqelik, jarayonlar, tanishilayotgan predmetlarning tarkibiy elementlari o'rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarining mazmunini anglay boshlaydi. Xususan, "Nima uchun qor oppoq?", "Nima sababli qor uchqunlarining shakli rang-barang?", "Nima uchun yomg'ir yog'adi?", "O'simliklar qanday qilib o'sadi?", "Chumchuqlar tunda qayerda uxlaydi?", "Qishda hayvonlar sovuq qotmaydimi?", "Kattalar nima uchun ishga borishadi?" va hokazo kabi savollarni berish va ularga javoblarni olish orqali tarkibiy elementlari o'rtasidagi sabab-oqibat birligiga asoslangan bog'liqlikni tushunad hamda mazmunini anglaydi.

3. Taqqoslash va umumlashtirish malakasiga egalik. Boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan o'zlashtiriladigan bilim (tushuncha)lar turli predmet, voqea, hodisa, jarayon va munosabatlarga xos jihatlarini o'zaro taqqoslash, o'zaro o'xshash xususiyatlarga oid ma'lumotlarni umumlashtirish asosida hosil bo'ladi. Tegishli yoshdagi bolalar tomonidan amalga oshiriladigan taqqoslash va o'xshash jihatlariga qarab guruhlash ijtimoiy hamda tabiiy borliqqa xos xususiyatlarni katta-kichik, yaxshi-yomon, tez-sekin, baland-past tarzda baholash shaklida amalga oshiriladi.

4. Muammoni hal qilish (yechimni topish) qobiliyatiga egalik. Tegishli yoshdagi bolalar uchun xarakterli xususiyatlardan biri – ular tomonidan savollarning ko'p berilishi sanaladi; ularning bunday harakatlarining asosiy sababi ijtimoiy va tabiiy borliqni anglashga bo'lgan intilishdir. Savollarga olingan javoblar orqali ularning bilishga bo'lgan ehtiyojlari qondiriladi. Bu yoshdagi bolalar masalalarni yechish, o'yinlar jarayonida to'g'ri qarorga kelish orqali oddiy muammolarni mustaqil hal qilishga harakat qiladi. Ularning bu kabi harakatlarini rag'batlantirishning samarali yo'li ularga o'rganilayotgan mavzular bo'yicha qisqa, lo'nda savollar berish orqali javob topishga undash, garchi taqdim etilgan yechim noto'g'ri bo'lsa ham ularning ishtiyoqi, shijoatini so'ndirmaslik muhim hisoblanadi. Eng muhimi, ular tomonidan masalaning yechimi bo'yicha imkon qadar ko'proq takliflarning ilgari surilishiga erishish, o'qituvchining rahbarligi, ijobiy

rag'batlantirishi asosida to'g'ri javobni topishga erishish bo'lib, bu jarayon ularning o'rganilayotgan muammoga bo'lgan qiziqishlarini ham oshiradi.

IV. Dunoqarashni shakllantirish. "Shaxsning tabiatga, jamiyatga, o'zining ijtimoiy muhitdagi o'rniga, o'z-o'ziga, turli voqeliklarga munosabatini belgilab beradigan qarashlari, e'tiqodi, hayotiy tajribasi va faoliyat tamoyillarining tizimi" [7]; "dunyoga va insonning undagi o'rniga, kishilarning o'z atrofidagi voqelikka va o'z-o'ziga munosabatiga bo'lgan umumiy qarashlar tizimi, shuningdek, bu qarashlarga asoslangan odamlarning e'tiqodlari, ideallari, bilish va faoliyat tamoyillari" [1]; "tajribasining eng xilma-xil qatlamlarini qamrab oluvchi ongning murakkab shakli" [3]; "dunyo va insonning undagi o'rni to'g'risidagi g'oyalari, bilimlari tizimi" [10] kabilarni ifodalovchi dunoqarash falsafiy kategoriyasi sanaladi.

"O'qish" fani bo'yicha yaratilgan darsliklar badiiy va ilmiy mavzulardagi matnlar asosida shakllantirilganligi sababli ular bilan tanishish orqali o'quvchilar tabiat, jamiyat, inson va hayot haqida dastlabki tasavvurlarga ega bo'ladi. Darslikdan o'rin olgan hikoya, ertak va she'rlarda yaxshilik-yomonlik, ezgulik-yovuzlik o'rtasidagi kurash, mehnatsevarlik, halollik, adolatli bo'lish, to'g'riso'zlik, vatanparvarlik g'oyalarini targ'ib qilinishi o'quvchilar tomonidan umuminsoniy va milliy qadriyatlar to'g'risidagi tushunchalarning o'zlashtirilishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga o'quvchilarda milliy hamda umuminsoniy an'ana, urf-odat, qadriyatlariga hurmat hissi uyg'otadi.

Rang-barang, ayniqsa, tabiat, yil fasllari, tabiiy hodisalarga oid mavzulardagi matnlar bolalarning atrof-muhitga bo'lgan qarashlarini kengaytirish bilan birga dunoqarashlarini samarali shakllantiradi. Bu esa ularda uzluksiz ta'limning keyingi bosqichlarida akademik bilimlarni puxta o'zlashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

"Dunoqarashni shakllantirishda o'quvchilarni badiiy asarlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarini ulug'laydigan san'at namunalari – kinofilmlar, teatr tomoshalari, konsert dasturlari bilan yaqindan tanishtirish ularda o'ziga, atrof-muhitga ijobiy munosabatni qaror toptiradi" [6].

V. Muloqot malakasini rivojlantirish. Arabcha ("مُلاَقَاتٌ" – uchrashish, ko'rishish, aloqa qilish, qabul qilish) so'zdan olingan bo'lib, lug'aviy mazmuniga ko'ra "muloqot" atamasi "uchrashuv, musohaba" [11]; "shaxslararo axborot almashish, o'zaro ta'sirning yagona yo'lini tanlash, o'zgalarni tushunish, idrok etish va baholash xarakteriga ega bo'lgan ikki yoki undan ortiq shaxslarning o'zaro bir-biriga ta'sir etish usuli" [6] ma'nolarini ifodalaydi.

Ijtimoiy ahamiyatiga ko'ra "shaxs kamolotini ta'minlaydigan ijtimoiy omillardan biri" [7] hisoblanadigan

muloqot boshlang'ich sinf o'quvchilarining kundalik, mehnat, o'yin, o'quv-bilish faoliyatlarida ham muhim o'rin tutadi. Binobarin, muloqot qilish orqali o'quvchilar ijtimoiy munosabatlar mazmunini anglaydi, tabiiy borliq qonuniyatlarining mohiyatini tushunadi, o'zining xohish-istaklari, maqsadlari hamda kechinmalarini bayon qiladi.

Boshlang'ich sinflarda tashkil qilinadigan "O'qish" darslari o'quvchilarda muloqot (kommunikativ) malakasini shakllantirish va rivojlantirishda juda katta didaktik imkoniyatlarga ega. Bu imkoniyatlar quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi: dars jarayonida o'qituvchi va o'quvchi, shuningdek, o'quvchilar o'rtasida tashkil qilinadigan o'zaro muloqot, davomli dialoglar, savol-javoblar bolalarning muloqot madaniyatini shakllantiradi; o'quvchilar matnni o'qish, uning mazmunini tushunish va qayta hikoya qilish, matnda ifodalangan hodisa, voqelik, munosabatlar to'g'risida o'z fikrini bildirish orqali kommunikativ ko'nikma, malakalarni o'zlashtirib boradi; dars vaqtida rolli o'yinlar, badiiy sahna ko'rinishlaridan foydalanish, matn asosida suhbatlarni uyushtirish esa o'quvchilarning dialogik va monologik nutqini rivojlantirishga yordam beradi; matnlarda tasvirlangan qahramonlarning xatti-harakatlariga baho berish, shaxsiy munosabatni bildirish sababli o'quvchilar mustaqil fikrlash, o'z nuqtayi nazarini himoya qilish malakasini o'zlashtiradi; o'qituvchi yoki tengdoshlarini tinglash o'quvchilarni o'zgalarning fikrini tushunish va javob qaytarishga o'rganadi (bu holat shaxslararo muloqotning muhim qismi hisoblanadi); o'qituvchi tomonidan berilgan aniqlashtiruvchi savollar, yo'naltiruvchi metodik ko'rsatmalarni berish, ijodiy topshiriqlarni bajarish asosida o'quvchilarda hikoya tuzish, matnni davom ettirish, obrazlarga kirish qobiliyati namoyon bo'ladi (bu kabi yondashish o'quvchilarda erkin muloqot malakalarini samarali ravishda rivojlantiradi).

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, boshlang'ich ta'lim tizimida "O'qish" fani o'quvchilarning intellektual rivojlanishida yetakchi o'rin egallaydi. Uning didaktik imkoniyatlari o'quvchilarda hayotiy muhim tayanch ko'nikma, malaka, kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Jumladan, o'qish jarayonida savodxonlikni shakllantirish, nutqni boyitish, fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, dunoqarashni shakllantirish, shuningdek, muloqot malakasini rivojlantirish kabi vazifalar tizimli ravishda amalga oshiriladi. Shu bois "O'qish" darslarini tashkil etishda asosiy pedagogik vazifa sifatida o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishni ustuvor yo'nalish sifatida belgilash zarur. Bu jarayon ilmiy asoslangan, maqsadga yo'naltirilgan va tizimli pedagogik yondashuvni talab etadi.

ADABIYOTLAR

1. Дунёқараш // <https://qomus.info/encyclopedia/cat-d/dunoqarash-uz>.
2. Значение слова "мыслить" // <https://kartaslov.ru/значение-слова/мыслить>.
3. Интымакова Л.Г., Чередникова Н.П. Мирозозрение: структура и способы организации // Ж. Вестник Таганрогского института имени А.П.Чехова. – Таганрог: 2008. – № 1. – С. 18.
4. Каримова В.М., Суннатова Р.И., Тожибоева Р.Н. Мустақил фикрлаш / Академик лицейлар ва касб-хунар коллежлари ўқувчилари учун қўлл. – Т.: Шарқ, 2000. – 6-б.
5. Нутқ // <https://qomus.info/encyclopedia/cat-n/nutq-uz>.
6. Pedagogika. Izohli lug'at / B.Abdullayeva, M.Usmonbayeva va boshq. – Т.: "Innovatsiya ziyo" nashriyoti, 2020. – 56-141-b.
7. Педагогика / Нопедагогик олий таълим муассасалари учун мўължалланган дарслик. У.И.Иноят, Н.А.Муслимов, Д.И.Рўзиева, М.Х.Усмонбоева. – Т.: ТДПУ, 2016. – 56-85-б.
8. Rajarova K.M. Nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishga tizimli yondashishning ilmiy-metodik asoslari (5-7 sinf ona tili darslari misolida): ped.fanl. bo'yicha fals.dokt. (PhD) ... diss. – Jizzax: 2022. – 30-b.
9. Uzviylashtirilgan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Ona tili. O'qish. Matematika. Atrofimizdagi olam. Tabiatshunoslik. (1-4-sinflar). – Т.: Yangiyo'l poligraph service, 2010. – 44-46-б.
10. Челышев П.В. Научное мировоззрение – миф или реальность? // Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. – М.: 2016. – № 2-4. – С. 612.
11. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Е – М / 5 жилдди. Иккинчи жилд. А.Мадвалиев тахрири остида. Тахрир хайъати: Э.Бегматов ва бошқ. – Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2006. – 636-.
12. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Н – Тартибли / 5 жилдди. Учинчи жилд. А.Мадвалиев тахрири остида. Тахрир хайъати: Э.Бегматов ва бошқ. – Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2007. – 67-416-б.